

ISSN 2181-4791



**IMOM BUXORIY XALQARO
ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

**IMAM BUKHARI INTERNATIONAL
SCIENTIFIC RESEARCH CENTER**



**№1
2022**



IMOM BUXORIY SABOQLARI

*Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-
adabiy jurnal*

*Spiritual and educational,
scientific-literary journal*



2022-YIL –

**INSON QADRINI
ULUG'LASH VA FAOL
MAHALLA YILI**

Ушбу сонда:

Шовосил ЗИЁДОВ. Биз ота-боболардан миннатдормиз, фарзанд ва набиралар биздан миннатдор бўлсин....3

АЖДОДЛАР ИЛМИЙ МЕРОСИ

Отабек МУҲАММАДИЕВ, Дилмурод ҚУЛМАТОВ. “Лубобул Калом”даги долзарб ақидавий масалалар.....5	5
Очил БЎРИЕВ, Асал МУҲАММАДИЕВА. Аждодларимиз меросида ёлғончилик иллатининг қораланиши.....6	6
Максуда ХАЖИЕВА. Ҳикматларда яширилган дурдоналар.....8	8
Гулчеҳра НАВРЎЗОВА. Ҳалоллик – тинчлик ва хотиржамлик асоси.....9	9
Шоислом АКМАЛОВ. Алломалар меросининг илмий-маърифий аҳамияти.....11	11
Жамолиддин ЖЎРАЕВ, Завқиддин БУРҲОНОВ. Алишер Навоий асарларида арабча орттирма сифат даражаларининг қўлланиши.....13	13
Равшан ТУРСУНОВ. Абдурауф Фитратнинг экологик маданият ва билимларга оид қарашлари.....14	14
Маҳаммадсидиқ УСМАНОВ. Имом Насоий – буюк муҳаддис.....16	16
Абдувоси ШОНАЗАРОВ. “Саҳиҳул Бухорий”нинг замонлар оша сақланиши ва тарқалишида Фирабрийнинг хизматлари.....18	18
Исроилжон НАСРИДДИНЗОДА. Хусомуддин Садр Шаҳиднинг ҳаёти ва илмий фаолияти тарихи.....20	20
Қосимбек РАЗЗОҚОВ. Тасаввуф ва Чиштия тариқатида ахлоқий-тарбиявий муносабатлар.....22	22
Sohibjon UMARJONOV. Muhammad ibn Umar Fahriddin Roziy asarlarining qisqacha sharhi.....24	24

НОДИР МАНБАЛАР

Гулчеҳра ҒАФҒАРОВА, Гулбаҳор ЖАЛАЛОВА. Ўрта Осиё мутафаккирларининг илмий асарларида фанлараро ёндашув ғоялари..... 26	26
Латофат ХОЛНАЗАРОВА. Ўрта Осиё хонликларида тазкиранавис ижодкорлар.....27	27
Нодирбек АБДУЛАХАТОВ. Саййид Камолиддинхожа Косонийга бағишланган марсиялар тадқиқи.....29	29
Шукурилло УМАРОВ. Муҳаммад Юнийнинг “Саҳиҳул Бухорий” асарига ёзилган “Юний” нусхаси.....31	31
Бахтиёр ТУРСУНОВ. Алишер Навоий ҳаёти ва фаолиятига оид қимматли тарихий манба (фалсафий-тарихий таҳлил).....33	33
Лола АЗИМОВА. Холис Тошкандий ва Абдуқайом Ваҳмий ижодида ислом тарихи воқеаларининг бадий талқини (XIX аср).....34	34
Gulnoza ALIJONOVA. “Kutubi Sitta” to‘plamlari shakllanishida Imom Buxoriy “Al-Jome as-sahih” asarining o‘rni.....36	36

ВАТАНИМИЗ ТАРИХИ

Юнус ХОЛИҚОВ. Ўзбекистонда миллатлараро бағрикенгликни мустаҳкамлашнинг ўзига хос хусусиятлари...39	39
Шоира ИНДИАМИНОВА. Суғд мусиқа санъатининг жаҳон маданиятига таъсири.....40	40
Раъно ТЎХТАЕВА. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистонда молиявий ҳаёт ва унинг издан чиқиши.....42	42
Диёржон АБДУЛЛАЕВ. Муқофотлаш тадбирлари ва унинг ўзига хос кўринишлари (XVI-XIX асрлар Ўрта Осиё хонликлари мисолида).....44	44
Икром ДЖУРАЕВ. Ривоятдаги ҳақиқат излари.....46	46
Музаффархон ЖОНИЕВ. Чор Россияси даврида Самарқанд вилояти мусулмонларининг ҳаж сафарлари...48	48
Дилфуза БЕГАЛИЕВА. Хива хонлигида бий лавозимининг ўрни.....49	49
Феруз БОБОЕВ. Ўзбекистонда совет ҳокимиятига қарши кураш кучайишида диний сиёсатнинг таъсири (1918-1935 йиллар).....51	51
Гулмамат АҲМЕДОВ. Маҳмудхўжа Беҳбудий – Самарқанд жадидларининг йирик намояндаси.....53	53
Маъруф ҒОВСИДИНОВ. Э.Е.Бертельс тадқиқотларида Жомий ахлоқий қарашларининг ёш авлод тарбиясидаги ўрни.....55	55
Latofat IBRAGIMOVA. “Ravshanxon” dostoni tilida tarixiy so‘zlar va ularning leksik-semantik xususiyatlari.....57	57
Sobirjon ISOQOV. XIX asr boshida O‘rta Osiyo xonliklarida din, siyosat va savdoning holati Mir Izzatulloning хотираларида.....58	58
Mirzhalolhon ASATULLAYEV. The state of Public education in Samarkand during the great patriotic war.....60	60
Dilmurod MAMARASULOV. Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek madrasasi ta‘mirlanishiga doir.....63	63

ИСЛОМ ВА ҲОЗИРГИ ЗАМОН

Бахти ОЧИЛОВА. Исломда оила муносабатлари ва эр-хотин ўртасидаги муштарак ҳуқуқлар.....66	66
68.....كامل سميع الله إسكندر. خدمات علماء التتار في تفسير القرآن وبيان معانيه.	
Хусан ДЖУРАКУЛОВ. Ёшларнинг экологик онги ва маданиятини юксалтиришда ислом динида илгари сурилган ғоялардан оқилона фойдаланиш зарурати.....72	72
Одилжон ЭРНАЗАРОВ. Шарқий Осиёда ислом динининг тарқалишига оид тадқиқотлар таҳлили.....73	73

Илёсжон СИДДИҚОВ. Ўрта асрлардаги ислом маданиятида интеллектуал тараққиётнинг вужудга келишида ворисийлик анъаналари: Тадқиқотлар таҳлили.....	75
O'ktamjon AMONOV. Zamonaviy iqtisodiyotda islom banklarining ahamiyati va xususiyatlari.....	77
Алаас Эрхан Жогор Уола. Взгляд исламского шариата на смену пола и вытекающие из этого изменения в порядке наследования.....	80
Мохира ЖУМАНИЯЗОВА. Ислом фалсафаси ва тафаккурида хотин-қизлар саломатлиги масалалари.....	82
Ислам МЕЙРИЕВ. Взгляды известного мусульманского богослова Мустафы Сабри относительно прав женщин на базе книги «Каули фи аль-мар`а».....	83

ИЖТИМОЙ ИНСТИТУТ

Хусниддин АХМЕДОВ. Мустақил тараққиёт – фуқаролик жамияти барпо этиш омили.....	86
А.А. УСМАНОВА, А.В. ШМАКОВА, А.С.УГАЙ. Проблемы межнациональных браков в современном обществе.....	88
Аббос ДЎЛАНОВ. Янги Ўзбекистонда мустақил фикрлаш ва янгича руҳиятни шакллантириш зарурияти.....	90
Рамз РУСТАМОВ. Тарғибот типлари, унинг мақсад ва вазифалари.....	92
Бехруз ТУРДИЕВ. Обновления идеосферы в стратегии развития Нового Узбекистана.....	93
Мирсултон КАДИРОВ. Давлат ва фуқаролик жамияти институтларининг ҳамкорлиги самарадорлигини ошириш йўллари.....	96
Феруза ДЖУРАЕВА. Бадиий тафаккур ёғдусини излаб: Қадим араб нотиғи хитобаси мисолида.....	98
Турсунмурод МАМАТҚОБИЛОВ. Ижтимоий ислохотлар жараёнида бошқарувнинг ўзига хослиги.....	101
Шерахон ХОШИМОВ. Ўзбекистоннинг миллий туризми ўз-ўзидан ривожланиб боровчи тизим сифатида.....	103
Мансур ВАХАБОВ. Тарғибот ва ташвиқот тушунчаларининг фалсафий таҳлили.....	104
Фируз РАШИДОВ, Зулфияхон РАШИДОВА. Фуқаролик жамияти институтлари фаолиятини такомиллаштиришда оила институтининг ўрни ва роли.....	106
Рахимбой ЯРМАТОВ, Гулноза ШЕРТАЙЛАКОВА. Бўлажак тарих ўқитувчиларининг касбий методик тайёргарлигини такомиллаштиришда Имом Бухорий сабоқларининг ўрни.....	108
Рустам БОЙМАТОВ. Шахснинг сиёсий ижтимоийлашуви муаммолари.....	110
Сожида ЯХЯЕВА. Эстетик маданият жамиятнинг маънавий-мафкуравий олами сифатида.....	111
Элдар КУРБАНОВ. XXI аср бошида демократиянинг янги назарий асослари.....	114
Асроржон САТТОРОВ. Ўзбекистон Республикасининг Марказий Осиё давлатлари билан минтақавий ҳамкорлигининг янги стратегияси.....	116
Нуриддин ЮСУПОВ. Эллада халқлари ҳаётида Шарқ.....	118
Баходир ЭШБЕКОВ. Оммавий ахборот воситаларининг жамоатчилик онгини шакллантириш механизмлари.....	120
Жонибек ТАНИКУЛОВ. Медиа ахборот мотивлари – жамоатчилик фикри психологиясига таъсир этиш механизми сифатида.....	122
Хосият НАФИДДИНОВА. Хорижлик олимлар асарларида оила, оилавий маросимлар ва улар билан боғлиқ масалаларнинг ёритилиши.....	124
Обид ТАНГИРОВ. XIX аср охири – XX аср бошларида Тошкент шаҳрида маҳаллий бошқарув лавозимларига сайлов тартиблари.....	126
Сухроб ЭРГАШЕВ. XX аср бошларида Бош Вақф бошқармасининг сиёсий фаолияти.....	128

ФАЛСАФИЙ МУШОҲАДАЛАР

Зиёдулла ДАВРОНОВ. Борлиқ ҳақидаги концепциянинг ўзига хос талқини.....	130
Гулноза СУЛТАНОВА. Фан, техника ва таълимда проектив тафаккур тарзи когнитив инновация тури сифатида.....	131
Замирахон ИСАҚОВА. Тасаввуф таълимотида каромат масаласи: Фалсафий-ирфоний талқин.....	132
Сарвар АБДУЛЛАЕВ, Насрулло ТЎХТАЕВ. Ислом ва бошқа фалсафий қарашларда инсон ихтиёри ва ирода эркинлиги.....	135
Махмуд МАЖИТОВ. Шахс, индивид, индивидуаллик тушунчаларининг ижтимоий-фалсафий таҳлили.....	137
Равшонбек САУРОВ. Давлат хизматларининг либерал демократик ва кратологик характери.....	139
Рауф БЕКБАЕВ. Суфизм в контексте философии традиционализма Рене Генона.....	141
Элёр УЛУҒМУРОДОВ. Глобаллашув даврида дин ва ахлоқ ўртасидаги муносабатларнинг фалсафий таҳлили.....	142

ЁШЛАР – КЕЛАЖАГИМИЗ

Отабек ҒАЙБУЛЛАЕВ. Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда миллий ғоянинг ўрни.....	145
Нигора БУРАНОВА. Инсон қадри илм биландир.....	146

МАЪНАВИЙ ТАҲДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШ

Нилуфар ШУКУРОВА. Ёшларнинг оммавий маданият таҳдидларига қарши курашишдаги роли.....	148
--	-----

БИР ҲАДИС ШАРҲИ

Мусулмоннинг хислатлари.....	150
------------------------------	-----

нинг хизматлари беқиёсдир.

Чиштия вакиллари Аллоҳга таваккул қилиб, ҳаоло меҳнат билан тирикчилик қилишни тарғиб этган. Сўфий оч кишининг қорнини тўйдириш, мазлумларнинг илтимосини бажариш, камбағал-қашшоқларга баҳоли қудрат кўмак бериш йўли билан Аллоҳнинг марҳаматига сазовор бўлишга интилиш шарт, деб ҳисоблаган. Шунингдек, бу тариқат муридлар пулига муккасидан кетиш, гадоилик билан шуғулланиш, ҳамр ичиш, гиёҳвандлик қилиш, тамаки чекиш каби иллатларни тақиқлагани билан ҳам аҳамиятлидир [6:355]. Чиштия шайхлари инсонга муҳаббат, бойлик ордидан қувламасликни тарғиб этган.

Тариқат вакиллари меросхўрликни тан олмаган, мур-

шидга ворисни олдинги шайх белгилар ёки у сайланар эди. Бу тариқат хонақоҳи оддийлиги ва соддалиги билан ажралиб турарди. Унда йиғилиб, диний илмлар ўрганиладиган ва Аллоҳни зикр қиладиган жамоатхоналар ва устоз – шайх учун ҳужра бўларди. Чиштийлар таклиф этиладиган лавозим, мартаба, амалларни рад этар ва ҳукумат билан бирор алоқани ёқламас, дунёпарастликни инкор этар эди.

Улар инсон Худодан умид қилиб, ўз меҳнати билан кун кечирishi зарур, фақат оддий инсонларнинг ихтиёрий қурбонлигини қабул қилиши мумкин, деб ҳисоблаган. Сўфийнинг Ҳақ таоло олдидаги хизмати оч кишини тўйдириш, қийналган, азоб чеккан кишининг илтимосини қондириш ва камбағала ёрдам беришдан иборат бўлган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Иброҳим Ҳаққул “Тасаввуф ва шеърият” Фафур Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси. –Т., 1991.
2. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. –М.: Наука.1995.
3. Kadirov, Davronbek (2020) “Al-mavahib us-sarmadiah” and the sources given in it concerning the nakshbandi tarikah,” The Light of Islam: Vol. 2020 : Iss. 1 , Article.
4. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Т.: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009.
5. <http://uza.uz/oz/politics/shavkat-mirziyoyev-yoshlar-talim-tarbiyasida-shoshmaslik-kerak-07-07-2017>.
6. Ислом энциклопедияси, Зухриддин Ҳусниддинов таҳрири остида. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2004.

♦ **Аннотация:** Мақолада тасаввуф таълимоти, унинг таърифлари, чиштия тариқати авлиёларининг тарбия ва инсонпарварликка оид қарашлари, Президентимизнинг ёшлар тарбиясига доир фикрлари акс эттирилган. **Таянч сўзлар:** Тасаввуф, тариқат, тарбия, чиштия, авлиё, шайх, инсонпарварлик, Ватан, ватанпарварлик, покизалик, шаффолик.

♦ **Annotation:** This article reflects the education of Sufism, its definitions, the views of the Chishtiya sect and the saints of this sect on education and humanity, as well as the views of the President on the education of youth. **Key words:** Sufism, sect, education, chishtiya, saint, sheikh, humanity, homeland, patriotism, purity, transparency.

♦ **Аннотация:** В статье описываются мистическое учение, его определения, направление чиштия и взгляды священников данной секты о гуманности и патриотизме, а также отражены рассуждения Президента по воспитанию молодежи. **Ключевые слова:** Мистицизм, секта, воспитание, чиштия, святой, шейх, гуманность, Родина, патриотизм, чистота, прозрачность.

MUHAMMAD IBN UMAR FAHRIDDIN ROZIY ASARLARINING QISQACHA SHARHI

SOHIBJON UMARJONOV
TDIU tayanch doktoranti

Vatanimiz azaldan ilm-ma'rifat o'chog'i bo'lib kelgan. Bu yurtdan ko'plab qomusiy olimlar yetishib chiqqan. Ular qoldirgan ulkan ilmiy meros garchi turli bosqinlar davrida yo'q qilingan, olib ketilgan bo'lsa-da, bizning davrimizgacha yetib kelganlarining adadi, hisobga olinganlari ham kishini hayratga soladi. Ana shunday ma'naviy merosimiz saqlanayotgan ilmiy dargoh – O'zFA Sharqshunoslik instituti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi o'zining boyligi, turli fan sohalarining xilma-xilligi bo'yicha dunyodagi eng boy qo'lyozma fondidan biridir. Qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan asarlarning ichida eng qadimiysi IX asrga (Qur'oni karimning kufiy xati bilan kitobat qilingan nusxasi), eng yangilari esa XX asrning o'rtalariga oid [1].

Qo'lyozmalar majmuasidagi asarlar o'zbek, arab, fors, tojik, urdu, pushtu, ozarbayjon, turk, tatar, turkman, uyg'ur va boshqa sharq xalqlarining tillarida yozilgan. Bu asarlar o'rta asr va undan keyingi davr fanining turli tarmog'iga, ya'ni tarix, adabiyot, falsafa, huquq, falakiyot, kimyo, tabobat, jug'rofiya, dorishunoslik, til, musiqa, matematika, ma'danshunoslik va boshqa sohalariga oid.

Bu xazina saqlanayotgan asarlarni birinchi navbatda ikkita katta guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh – qo'lyozma asarlar, ikkinchi guruh esa, toshbosma va nashr etilgan kitoblar hisoblanadi. Hozirgi vaqtda qo'lyozmalar xazinasida (asosiy fond – 13559ta, dublet fond – 5237ta, Hamid Sulaymon fondi – 7586ta) jami 26382 jild kitob saqlanayotgan bo'lsa, toshbosma va nashr etilgan kitoblarning (asosiy fond – 23569ta, dublet fond – 3243ta, maxsus fond – 6389ta, Hamid Sulaymon fondi – 6875ta) umumiy soni 40076 jildan ortiqni tashkil etadi [1]. Ular O'rta Osiyo, shuningdek, Sharq mamlakatlari – arab davlatlari, Afg'oniston, Pokiston, Turkiya, Xitoy, Eron, Hindiston tarixini o'rganishda o'ta muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, Institutning qo'lyozmalar xazinasida 10 mingga yaqin tarixiy hujjatlar ham saqlanadi.

Biz bu kichik hajmli tadqiqotimizda institutning fondida saqlanayotgan Muhammad ibn Umar Fahriddin Roziyning qalamiga mansub qo'lyozmalarga to'xtalib o'tmoqchimiz. Institutning asosiy fondida Roziyning 14 nomdagi asarlarining

39ta qo'lyozma nusxalari saqlanmoqda. Ularning ichida eng ko'p – 21 nusxadagisi “Al-Tafsir al-kabir” yoki “Mafatih ul-g'ayb” asari hisoblanadi. Quyida Fahriddin Roziyning qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan asarlarining ro'yxatini va ular to'g'risida qisqacha malumot berib o'tamiz.

1. Al-Tafsir al-kabir yoki Mafatih ul-g'ayb tafsir ilmiga oid asar hisoblanadi. Bu ulkan Qur'on sharhini taxminan 595/1199 yilda yozish boshlangan. Ammo asarni Roziy yozib tugata olmagan. Keyinchalik uning shogirdlari tugatgan [2:10]. Qo'lyozmalar instituti asosiy fondida 9237, 9238, 6834, 5109, 9236, 5108, 5106, 5110, 4719, 5107, 9473, 7295, 4776, 2157, 5986, 5326, 2062, 4754, 4755, 3248, 4736 sonli inventar raqamlar ostida saqlanadi. Ushbu qo'lyozmalar arabcha, nastaliq, nasx, suls yozuvlarida ko'chirilgan.

2. Jami ul-ulum asarining 10583, 415, 5514 inventar raqamli 3ta qo'lyozma nusxalari mavjudligini aniqladik. Arab tilida, nastaliq yozuvda ko'chirilgan. Bu asar xorazmshox Takashning iltimosiga binoan yozilgan. Asar XII-XIII asrlar musulmon sharqidagi oltmishga yaqin fan va ularning tasnifi haqida ma'lumot beradi.

3. Asrar al-tanzil va anvar al-tavil asari Roziyning ilohiy mavzularni Qur'on oyatlari asosida tadqiq etuvchi tugallanmagan asari hisoblanadi. U “Al-Tafsir al-kabir” asaridan keyin yozilgan ko'rinadi va keying manbalarda ba'zan Qur'onning kichik sharhi (Al-Tafsir al-sag'ir) deb ham yuritiladi [2:10]. Arab

tilida, nastaliq yozuvida ko'chirilgan. Inventar raqami 10691 hisoblanadi.

4. Latoif ul-g'iyosiyot qo'lyozmasining asosiy fondga 2ta nusxasi mavjudligini aniqladik. Bular 10873 va 2355 inventar raqamli qo'lyozma nusxalaridir. Avvalgi ilmiy tadqiqotlarimizda 10873 raqamli qo'lyozma nusxasi doirasida tadqiqot olib borgan edik [3]. Birinchi qo'lyozma nusxa 1265/1848-yilda ko'chirilgan. Kotib ismi berilmagan. Kotib bu asarni o'qigan insonlar ko'chiruvchi haqqiga duo qilib qo'yishni so'ragan, ya'ni duo talab qilgan [4]. Asar uchta katta maqoladan iborat:

1. Ilmning fazilati haqida

2. Borliqning va olamning yaratuvchisi borligining dalillari to'g'risida

3. Inson ahvolidning sifatleri haqida [5:1060].

Fors tilida, nastaliq yozuvida ko'chirilgan. 120 varaqdan iborat. Roziyning bu asarining nomi "Kashf al-zunun"da berilmagan. 2355 raqamli nusxasi tojik tilida, nastaliq yozuvida Utman ibn Mir Muhammad 1060/1650-yilda ko'chirgan. 100 varaqdan iborat (154-55). E'tiborli jihati shundaki, bu asar ilmiy jamoatchilikka ma'lum emas edi. Bu asar Roziyning tadqiqotchilar o'rganmagan asari hisoblanadi.

5. Hadoiq ul-anvar fi-haqoiq ul-asrar qo'lyozmaning 2ta nusxasi mavjud. 2671 va 10287 inventar raqamlari ostida asosiy fondga saqlanadi. 2671 inventar raqamli nusxasi 1113/1701-yilda fors tili, nastaliq yozuvida ko'chirilgan.

6. Risalat taxqiq kalimatu-la ilaha illallah qo'lyozmasi, inventar raqami: 562.

7. Risalat al-kamaliya fi haqaiq al-ilohiyya 2536 inventar raqamli qo'lyozma nusxasi Hindistonda 1076/1665-yilda fors tilida, nastaliq xatida ko'chirilgan. Misril Maktum xuddi shu asarning 2687 raqamli qo'lyozmasining tojikcha tarjimasini nastaliq yozuvida ko'chirgan.

8. Risalat fittavhid qo'lyozma inventar raqami 5600, arab tilida, nastaliq yozuvida ko'chirilgan. Hajmi 4 varaq hisoblanadi.

9. Sharx al-Isharat va-l-tanbihat asari asosiy fondning 4957 I va 4957 III inventar raqamlari ostida saqlanadi. Tahminan

580/1184-yilda yozilgan. Bu asar Ibn Sinoning "Al-Isharat va-l-tanbihat" asariga Roziyning mashhur tanqidiy sharhidir [6:1]. Mantiq bo'limi haligacha nashr qilinmagan [2:9]. Arab tilida, nastaliq yozuvida ko'chirilgan.

10. Al-Mabahis al-mashriqiyya. Bu qo'lyozmani hijriy 665-yilda Ali ibn Muhammad arab tilida, nastaliq yozuvida ko'chirgan. Asosiy fond, Inventar raqami 2432. Asar Roziyning dastlabki ilmiy merosi hisoblanadi va unga Ibn Sino (v.429/1037), Abul Barakat Bag'dodiy (v.560/1164-5), Abu Bakr Roziy (v.313/925)larning falsafiy asarlari ta'sir ko'rsatgan. Bu asar Roziy falsafasining yetukligini anglatmaydi, lekin uning keyingi va oldingi qarashlaridan keskin farq qiluvchi fikrlarni o'z ichiga oladi. Roziy bu asarida falsafadagi hamkasblarini qadimgi va islomiy kuchlar asoslab bergan dalillar va usullarga bo'ysunishda ayblaydi [7:21].

11. Masail fittib. 3125 raqamli arab tili, nastaliq yozuvida ko'chirilgan qo'lyozma hisoblanadi. Bu qo'lyozma asar Abu Bakr Roziyning qalamiga mansub bo'lishi ham mumkin.

12. Nihayat al-uqul qo'lyozmasi asosiy fondning 10129 raqamli nusxasi hisoblanadi. Nasx xatida, arab yozuvida 680/1281-yilda Ali ibn Muhammad ibn Ali an-nasafiy ko'chirgan, 200 varaqdan iborat. Haligacha nashr qilinmagan. Bu Kalom ilmi haqidagi asar islom ilohiyoti tarixiga juda katta ta'sir ko'rsatgan. Bu Roziyning oldingi Ash'ariy tafakkuri bilan keyingi falsafiy ilohiyot o'rtasidagi hal qiluvchi qisqa bosqichni ifodalaydi [2:8].

13. Risalat fi-tanbih alal baadal asrar al-muvadaat fi baadal asvar qo'lyozmasi 2820 raqamli qo'lyozma hisoblanadi. 1099/1688-yilda Muhammad Sadiq ibn Habibulloh nastaliq xatida, tojik tilida ko'chirgan. 3 varaq (276-274)ni tashkil etadi.

14. Vasiyatnomai Razi. 2213 raqamli qo'lyozma, tojik tilida ko'chirilgan. 4 varaq (28-25)ni tashkil etadi.

Umuman olganda Roziyning qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan asarlarini o'rganish natijasida diyorimizda o'sha davrda ham ilm-fanning rivojlanganini ko'rishimiz va qimmatli ma'lumotlar olishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://beruni.uz/en-ca/tuzilma/institut-tarixi2.html>

2. Ayman Shihadeh, The Teleological ethics of Fahr al-Din al-Razi. Brill Leiden-Boston, 2006.

3. Umarjonov S, Fahriddin Muhammad ar-Roziyning (1149-1209) "Latoif ul-g'iyosiyot" asarining falsafiy-germenevtik tahlili. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.: 2020.

4. فخر الدين رازي. لئف ال غيسيت. (Fahr Addin Razi "Latoif ul-Giyosiyot" arab va fors tillarida) O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi (inv №10873)

5. С.С.Умаржонов, М.К.Сафаров. Fahriddin Roziyning "Latoif ul-g'iyosiyot" qo'lyozma asarida aql va e'tiqod masalasining qo'yilishi va uning diniy-falsafiy germenevtik tahlili. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (электрон журнал). 2021-йил июн.

6. Ayman Shihadeh, Fahr al-Din al-Razi's Response to Sharaf al-Din al-Mas'udi's critical commentary on Avicenna's Isharat. The Muslim World, volume 104, January/april 2014.

7. Tariq Jaffer, Razi Master of Qur'anic Interpretation and Theological Reasoning. Oxford University Press, 2015.

♦ **Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zR FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan Muhammad ibn Umar Fahriddin Roziyning asarlari haqida qisqacha tasnif berilgan. **Tayanch so'zlar:** Qo'lyozma, toshbosma, Hamid Sulaymon fondi, nastaliq, nasx, suls, Kalom ilmi, Misril Maktum, "Kashf al-zunun".


♦ **Annotation:** This article gives a brief classification of the works of Muhammad ibn Umar Fahriddin ar-Razi, which are kept in the manuscript fund of the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. Key words: Manuscript, lithography, Hamid Sulayman Foundation, nastaliq, naskh, suls, theology, Misril Maktum, "Kashf al-zunun".

♦ **Аннотация:** В данной статье дается краткая классификация произведений Мухаммада ибн Умара Фахриддина ар-Рази, которые хранятся в рукописном фонде Института востоковедения Академии наук Республики Узбекистан. Ключевые слова: Рукопись, литография, Фонд Хамида Сулеймана, насталик, насх, сулс, теология, Мисрил Мактум, "Кашф аз-зунун".



DUNYODA ILMDAN BOSHQA NAJOT YO‘Q VA HECH QACHON BO‘LMAGAY.

Imom Buxoriy



Telegram: @bukhariuz | @buxoriysaboqlari



E-mail: buxoriysaboqlari@bukhari.uz